

Glossariy:

Gipoderma – ignabargli o‘simliklarning epidermisi ostida joylashgan qo‘llab-quvvatlovchi to‘qima.

Kutikula – o‘simliklarning yuqori qismini qoplab turadigan, yog‘li moddalardan tashkil topgan plyonka shaklidagi qatlam.

Mezofill – ikki epidermis o‘rtasida joylashgan, asosiy xlorofill to‘plagan barg parenximasi.

Smola yo‘llari – ignabargli o‘simliklarda smola bilan to‘ldirilgan, uzun nay shaklidagi hujayralararo yo‘llar, barg va poyalarda mavjud.

Transfuzion parenxima – ignabargli daraxtlarning barglarida, o‘tkazuvchi bog‘lamlar va mezofil orasidagi bog‘lanishni ta‘minlaydigan, suv va mineral moddalarni o‘tkazadigan parenxima.

Trixomalar – shakli va tuzilishi turlicha bo‘lgan epidermis hujayralari, himoya va ajratish vazifalarini bajaradi.

Endoderma – transfuzion parenximani tomirdan ajratib turadigan hujayralar qatlamidir.